


To'ra Bobolov: Denovda ro'y bergan bu holatdan birdamlik va sabr bilan chiqamiz. Zarar ko'rgan fuqarolar va tadbirkorlarimiz uchun barcha zarur yordamlar ko'rsatiladi.



Kuni kecha Denov tumanida bo'lib o'tgan matbuot anjumanida joriy yilning 7 dekabr kuni soat 03:57 da Denov shahridagi ikki qavatli "Indenim" savdo majmuasida chaqnash oqibatida binoning devorlari qulab tushib, 2 kishi nobud bo'lganligi hamda 9 kishi jarohatlanganligi to'g'risida mutaxassislar tomonidan xabar berilgan edi.

(https://t.me/axborot_xizmati/10228)Qisqa vaqtdan so'ng voqea joyida bo'lgan viloyat hokimi holat bilan tanishdi va fuqarolarga yordam ko'rsatish hamda zarar oqibatlarini bartaraf etish ishlarini shaxsan o'z nazoratiga oldi.

Bugun erta tongdan shifoxonaga tashrif buyurgan viloyat hokimi u yerdagi bemorlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi va jarohat olgan fuqarolar holidan xabar oldi.

Kunning ikkinchi yarmida esa Denov tumanida viloyatdagi sog'liqni saqlash sohasidagi mas'ul rahbarlar bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda viloyat hokimi tibbiyot sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalar hamda qilinishi lozim bo'lgan ishlar xususida o'z fikrlarini bildirdi. Eng avvalo, soha xodimlarining malakasini oshirish zarurligini ta'kidladi.

Shuningdek, koronavirus infeksiyasining insoniyat hayotidagi salbiy ta'siri haqida to'xtalib, undan xalos bo'lishning eng samarali va eng ishonchli yo'li — fuqarolarni kasallikka qarshi emlash ekanligini ta'kidladi.

Uchrashuvda fikr-mulohazalar tinglanib, muammolarni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar rejasi belgilab olindi.

https://t.me/axborot_xizmati